

XORIJ PSIXOLOGLARI TADQIQOTLARIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUHIT MUAMMOSI

Qosimov Mirolimjon Abdufattox o'g'li

Jamoat xavfsizligi universiteti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7294450>

Annotatsiya. Maqola ijtimoiy-psixologik muhit muammosining xorij psixologlarining tadqiqotlaridagi tahliliga asoslangan. Tahlillarimiz jarayonida ijtimoiy-psixologik muhit, uning shaxs hayotidagi o'rni va ahamiyati, ijtimoiy-psixologik muhit atamasiga berilgan turlicha ta'riflar borasida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muhit, psixologik muhit, ijtimoiy-psixologik muhit, ijtimoiylashuv, ijtimoiylashuv nazariyasi.

ПРОБЛЕМА СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ В ИССЛЕДОВАНИЯХ ЗАРУБЕЖНЫХ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация. Статья основана на анализе проблемы социально-психологической среды в исследованиях зарубежных психологов. В ходе нашего анализа обсуждались социально-психологическая среда, ее роль и значение в жизни человека, различные определения термина социально-психологическая среда.

Ключевые слова: социальная среда, психологическая среда, социально-психологическая среда, социализация, теория социализации.

THE PROBLEM OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT IN THE RESEARCH OF FOREIGN PSYCHOLOGISTS

Abstract. The article is based on the analysis of the problem of social and psychological environment in the research of foreign psychologists. In the course of our analysis, the socio-psychological environment, its role and importance in the life of a person, various definitions of the term socio-psychological environment were discussed.

Key words: social environment, psychological environment, social-psychological environment, socialization, theory of socialization.

KIRISH

Ijtimoiy muhit - insonning yashashi va ishlashi uchun uni o'rabi turgan ijtimoiy, moddiy va ma'naviy shart-sharoitlardir. Muhit keng ma'noda (makromuhit) ijtimoiy-iqtisodiy tizimni — ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va tartib-qoidalar majmuini, jamiyatning ijtimoiy ong va madaniyatini o'z ichiga oladi. Tor ma'nodagi ijtimoiy muhit (mikromuhit) bevosita insonni qurshab olgan oila, mehnat, o'quv va b. guruhlardan iborat. Ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishiga va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtda insonning ijodiy faolligi, faoliyati ta'sirida ijtimoiy muhit o'zgaradi, bu o'zgarishlar jarayonida odamlarning o'zlarini ham o'zgaradi.

Ijtimoiy-psixologik muhit, uning shaxs kamolotiga ta'siri va roli, ijtimoiy-psixologik muhit muammolari bugungi kun zamonaviy psixologiyaning eng dolzarb masalalaridan biri sanalib kelinmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, salmoqli ishlar amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan, psixologik muhit shakllanishi masalasining o'rganilganlik darajasini, olimlar tomonidan olib borilgan mehnat jamoasida psixologik iqlim, mehnat jamoasida ijobiy iqlimi shakllantirish masalalarini o'rganilganligi talqinida ko'rib chiqadigan bo'lsak, psixologik iqlim masalasi bilan B.D.Parigin, K.K.Platonov,

A.A.Rusalinova, V.M.Shepel, A.N.Sherban; jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantirish muammosi bilan N.P.Anikeeva, R.X.Jakurova, A.S.Makarenko, A.N.Lutoshkina, T.A.Repinoy, V.P.Sergeeva; mehnat jamoasida ijtimoiy-psixologik iqlim muammosi bilan V.V.Boyko, V.R.Vesnin, A.LDonsov, V.N. Panferov, B.D.Parigin, K.K.Platonov, E.S.Kuzmin shug‘ullanganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, jamoalarda psixologik muhitning shakllanishi va uning turli aspektlarini ijtimoiy psixologik jihatdan D.G.Mayers, K.R.Rojers, G.M.Andreeva tadqiq qilgan, O‘zbekistonlik olimlar M.G.Davletshin, V.M.Karimova, Z.T.Nishonovalar tomonidan pedagogik jamoada psixologik muhitning pedagoglarga ta’siri masalalarini o‘rganganlar.

METOD VA METODOLOGIYASI

Ijtimoiy-psixologik iqlim ko‘plab tadqiqotchilarning o‘rganish mavzusiga aylandi (K. K. Platonov, A. Dontsov, V. A. Petrovskiy, A. J. Svenzitskiy, L. Kolominskiy, L. G. Pochebut, B. D. Parigin, E. S. Kuzmin, M. P. Tungi, N. S. Mansurov, V. Mashero, A. A. Rusalinov, F. M. Rusinov, Yu. T. Timofeev, V. A. Chiker, I. E. Shvarts, A. I. Shchebetenko va boshqalar). Ijtimoiy psixologiyada assosan, ijtimoiy-psixologik iqlimning ijtimoiy ta’limda yuzaga keladigan jarayonlarga, kichik guruh yoki jamoa faoliyatining muayyan ta’siri o‘rganildi. Biroq, ijtimoiy-psixologik iqlimning aniqlanish xususiyatini tushunish juda muhimdir. Shuning uchun ijtimoiy-psixologik iqlimga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish vazifasi haqiqiy ilmiy va ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb va muhim ahamiyatga ega. Ushbu vazifani hal etish mehnat jamoalarida amaliy texnologiyalarni ishlab chiqish va uni shakllantirish va optimallashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ijtimoiy-psixologik muhit haqida so‘z yutishdan avval *ijtimoiylashuv* atamasiga to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik. «Ijtimoiylashuv» atamasini birinchi bo‘lib amerikalik sotsiolog F.G. Keddings insonlarga nisbatan qollagan. U o‘zining «Ijtimoiylashuv nazariyasi» (1987) kitobida «ijtimoiylashuv individ tabiatи yoki xarakterining rivojlanishi, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir», degan fikrni bildiradi. Har birimizning jamiyatdagi o‘rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo‘lgani, jamiyatga qo‘silib yashashimizning psixologik mexanizmlari jarayoni psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi. Ijtimoiylashuvga oid bir qancha ta’riflar mavjud. Ijtimoiylashuv (ba’zi adabiyotlarda sotsializatsiya deb yuritiladi) tushunchasi ijtimoiy-psixologik, sotsiologik, pedagogik kategoriyalardan biri bo‘lib, bu atama shaxsning uni o‘rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta’siri ostida jamiyatdagi mavjud tajribalarni o‘zlashtirishga moyilligi yoki o‘zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Bu tushunchaning umumiy ma’nosi ostida individ tug‘ilib, uni o‘rab turgan birlamchi va ikkilamchi muhit ta’sirida ulg‘ayishi, undan so‘ng jamiyatga qo‘silishi, o‘rgangan barcha tajribalarini atrof-muhitdagilar bilan hamkorlik qilish jarayonida qo‘llashi va kimlargadir shu tajribalarni uzatishda vosita bo‘lishi jarayoni tushuniladi.

TADQIQOT NATIJASI

Ijtimoiylashuv so‘ziga berilgan ta’riflardan eng keng tarqalgani (lot. Socialis - ijtimoiy, jamoaviy) individning jamiyatga kirib borib, undagi hayot uchun zarur bo‘ladigan malaka, rollar, me’yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtirishidir. Ijtimoiylashuv jarayonida insonlarda jamiyatdagi muloqotning ishtiroychisi bo‘lishi uchun kerak bo‘ladigan ijtimoiy sifatlar, bilimlar, ko‘nikmalar shakllanib boradi. Hozirgi zamon psixologiyasida ijtimoiylashuv terminining yana ikkita sinonimi keng qo‘llaniladi: ya’ni bular «shaxs shakllanishi» va «tarbiya» jarayonidir.

Ijtimoiylashuv «individning jamiyatga kirib borishi», «ijtimoiy ta'sirlarni o'zlashtirish» hamda «ijtimoiy aloqa jarayonida ulardan foydalanish» kabi tushunchalar orqali ham ifodalanadi.

Shaxsnинг ijtimoiylashuvida ijtimoiylashuv mexanizmlari muhim o'rın tutadi. Fransuz olimi Gabriel Tard, amerikalik Uri Bronfentrener, rus olimiaridan V.S. Muxina va A.V. Petrovskiyarning tadqiqotlarida ijtimoiylashuv mexanizmlariga turlicha yondashuvlar keltirilgan. Ijtimoiylashuv mexanizmlariga quyidagilar kiradi: adaptatsiya; identifikatsiya; ishontirish; taqlid qilish.

Adaptatsiya — shaxsnинг o'z ichki xususiyatlarini o'zi yashayotgan muhit xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishi.

Identifikatsiya — individ tomonidan ongli va ongsiz ravishda boshqalarning xulq-atvorini, qadriyatlarini va ijtimoiy me'yorlarini o'zida qayta tiklashi (o'ziniki qilib o'zlashtirish).

Taqlid qilish — individ tomonidan ongli va ongsiz ravishda boshqalarning xatti-harakati, yurish-turishi, gapirishini o'zida qayta tiklash (o'ziniki qilib o'zlashtirish).

Ishonish — individ tomonidan ongli va ongsiz holatda u bilan muloqotga kirgan insonlarning fikrlari, his-tuyg'ulari, dunyoqarashlarini o'zida qayta tiklash (o'ziniki qilib o'zlashtirish).

Har qanday shaxs ijtimoiy muhitda yashar ekan o'sha ijtimoiy muhit uning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi va maskan vazifasini bajaruvchi bir qancha muassasalarga ega bo'ladi. Shaxs ijtimoiylashuviga ta'sir o'tkazuvchi atrof-muhitni birlamchi va ikkilamchi ijtimoiylashuv maskanlariga ajratish mumkin. Ijtimoiy-psixologik muhit muammolarini o'rganishda biz pedagogik jamoadagi holatni tahlil etib ko'rmoqchimiz. Har qanday pedagogik jamoada muyyan xususiyatga ega psixologik muhit shakllanadi. Olimlarning izlanishlari shuni ko'rsatadi, pedagogik jamoalardagi psixologik muhit ma'muriy-boshqaruv uslubi, jamoa a'zolarining hayotiy, ijtimoiy, professional bilim ko'nikmalari, qadriyatları hamda psixologik madaniyati rivojlanganligi darajasi kabilarga bog'liq ravishda, optimal (qulay, maqbul) yoki noqulay (nomaqbul) xususiyatga ega bo'lib shakllanishi mumkin.

Pedagogik jamoada optimal psixologik muhit shakllanishi ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifatini oshirish, pedagogik jamoaning psixologik va umumiy salomatligini mustahkamlash, pedagoglarning emotsiyal-hissiy kuyish holatlarini oldini olishga yordam berishi mumkin. B.D.Pariginning fikriga ko'ra, mehnat jamoasidagi psixologik muhit shaxslararo munosabatlар zamirida aks etuvchi omil sanaladi. Bu borada G.M.Andreeva psixologik muhit muayyan jamoadagi insonlarning o'zaro munosabatlari, kayfiyati, psixologik holati majmuidir, degan fikrni ilgari suradi.

MUHOKAMA

O'zbekistonda jamiyatning madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotidagi tub o'zgarishlar ijtimoiy hamkorlikning belgilangan shakllarini isloh qilish bilan bog'liq jarayonlarni ilmiy tushunishni talab qiladi. Siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi ortida, birinchi navbatda, ijtimoiy-psixologik munosabatlarning sifati o'zgarishi kerak. Shu munosabat bilan, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati bevosita ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelayotgan shakllari yurtimizda jamiyat rivojlanishining dolzarb yo'nalişlariga qanday javob berishiga bog'liq. O'qituvchining samarali innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun pedagogik jamoa hayotining ijtimoiy-psixologik jihatlarini ajralmas va dinamik xarakteristikasi bo'lgan ijtimoiy-psixologik iqlim ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu kontseptsiyaning mohiyatini tushunish bo'yicha olimlarning turli ta'riflari mavjud: ijtimoiy-

psixologik iqlim-odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning tabiatini, hayotiy faoliyat sharoitlarini, boshqaruv uslubi va darajasini va boshqa omillarni (B. D.Parigin), ta’lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish va amalga oshirish sharti, o‘qituvchining ijodiy izlanishlarga bo‘lgan intilishiga, ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi (Harri Kulman).

Ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarimiz tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim muassasalarida turli ijtimoiy-psixologik iqlim sharoitida pedagoglarning innovatsion tayyorgarligini rivojlantirish muammolarini nazariy jihatdan tushunish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratilgan. Ushbu shart-sharoitlar o‘qituvchining innovatsion faoliyatda (T.V.Luchkina) shaxsiy va professional o‘zini rivojlantirish muammosini, loyiha innovatsion faoliyatiga uzoq muddatli qiziqishni saqlab qolish muammolarini (Y.ShellenbachZell) o‘rganishda qisman amalga oshirildi. Ko‘rib chiqilgan tadqiqotlarning samarasini qayd etgan holda, kasb-hunar kollejlari pedagogik jamoalarining turli ijtimoiy-psixologik iqlim sharoitida pedagoglarning innovatsion tayyorgarligini rivojlantirish masalalarini ham e’tirof etish lozim.

Axloqiy va psixologik iqlim - bu xatti-harakatlar, bilim va hissiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan jamoa hayotining ajralmas parametridir. Jamoaning iqlimi - bu shaxslararo munosabatlarning sifatli tomoni bo‘lib, u samarali birgalikdagi faoliyatga va shaxsning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘shadigan yoki to‘sinqinlik qiluvchi psixologik sharoitlar to‘plami sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologlar jamoaning axloqiy va psixologik iqlimi holati va uning a’zolarining birgalikdagi faoliyati samaradorligi o‘rtasida ijobiy aloqalar mavjudligini aniqladilar.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ijtimoy-psixologik muhitning shaxs rivojlanishidagi o‘rni, ijtimoiy-psixologik muhitga bog‘liq muammolar, ijtimoiylashuv jarayoni va mexanizmlari doimo psixolog olimlar diqqat e’tiborida bo‘lib kelgan hamda o‘zing nazariy va amaliy qiymatini hamon yo‘qotganicha yo‘q.

Foydalaniman adabiyotlar:

REFERENCES

1. G‘oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlod.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
3. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women’s Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262-6269.
4. Toxirjonovna, O. M. (2022). ONA TILINI ORGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(5), 81-87.
5. Toxirjonovna, O. M. (2022). ONA TILINI ORGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(5), 81-87.

6. Mamurkhanovna, D. B. (2022). THE CONCEPT OF “LOVE” AS AN IMPORTANT ELEMENT OF THE EMOTIONAL WORLD LANDSCAPE. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(5), 95-98.
7. Kodirovna, Y. D. (2022). Improving Students' Linguistic Skills at English Classes (In the Field of Tourism). *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 8, 189-191.
8. Гафуров, Б. З. ТЕКСТЫ С ФОНОСТИЛИСТИЧЕСКИМИ ФОНОВАРИАНТАМИ И ИХ ПЕРЕВОД (НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА). *ILIM hám JÁMIYET*, 72.
9. Zakirovich, G. B. (2022). The Theme of Female Gender in the Texts of Advertising in Russian and Uzbek Languages (On the Material of Medical Vocabulary). *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(1), 23-29.
10. Gafurov, B. Z. (2022). Analysis of medical version in texts of advertising of hygiene products in the fight against COVID-19 (on the material of Russian and Uzbek languages). *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*.
11. Gafurov, B. Z. Similarities and differences of segment background options for Russian, Uzbek and English languages. *Monografia pokonferency jnascience, Research, development*, 26, 17-19.
12. Gafurov, B. Z. (2021). Medical terminology in advertising text. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(3), 30-40.
13. Zakirovich, G. B. (2020). Super-segment phonostylistics as the basis for studying the problems of accent variants of Russian nouns. *CREATION OF ETHNOGRAPHIES WITH POPULAR TRADITIONS*, 11(13), 39.
14. Gafurov, B. Z. (2021). Study of advertising texts in Russian on the topic of medical terminology. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*.—Indonesia, 26(1), 586-590.
15. Karimova, S. B. (2022). BELIEFS ABOUT TEACHING GRAMMAR. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 123-127.
16. Iskandarova, S., Karimova, S., & Abdulkarimova, M. (2021). NEGATIVE PREFIXES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
17. Ташматова, Г. Р. (2022). ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ ПРЕДМЕТНО-ЯЗЫКОВОГО ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ (CLIL. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 953-960.
18. Rafailovna, T. G. (2022). CHALLENGES OF IMPLEMENTING CLIL (CONTENT AND LANGUAGE INTEGRATED LEARNING). *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 567-574.
19. Ташматова, Г. Р. (2021). Теоретическое обоснование предметно-языкового интегрированного подхода (CLIL) в преподавании. *Science and Education*, 2(12), 816-823.
20. Абдуразакова, Д. С., Матчанов, С. Х., Ахмедова, Н. А., & Алиева, К. К. (2022). *Качество жизни пациентов с диагностированным ревматоидным артритом* (Doctoral dissertation, Ташкент).
21. Касимова, М. Б., Ахмедова, Н. А., Махаматходжаева, Х. Б., Шарапов, З., Худойназаров, А., & Кадирова, Ш. (2022). Erap-1 and il-23r as a leading genetic predictors of development of ankylosing spondyloarthritis.